



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

2026-yil 12-yanvar

5-5-0-Q/26

Navoiy viloyati hokimligi

Navoiy viloyati hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-308-son qarori, 2025-yil 22-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-189-son Farmoni, 2025-yil 30-oktabrdagi "Strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimini joriy etish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-201-son Farmoni, 2025-yil 17-dekabrda maxsus Farmoni, 2025-yil 18-dekabrda "Davlat auditi va moliyaviy nazorati faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-252-son Farmoni hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 22-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-308-son qarori, 2025-yil 22-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-189-son Farmoni, 2025-yil 30-oktabrdagi "Strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimini joriy etish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-201-son Farmoni, 2025-yil 17-dekabrda maxsus Farmoni hamda 2025-yil 18-dekabrda "Davlat auditi va moliyaviy nazorati faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-252-son Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimligi boshqaruv apparatida 2026-yil 1-yanvardan boshlab 5 ta shtat birligidan iborat kompaniyalar xizmati tashkil etilsin.

3. Quyidagilar, viloyat hokimligi boshqaruv apparatida:

viloyat hokimining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha o'rinbosari lavozimi;

viloyat hokimligi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat qilish shu'basi mudiri shtat birligi hisobidan viloyat hokimining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha o'rinbosari komplayens xizmati boshlig'i lavozimi;

viloyat hokimligi ishlar boshqarmasi bosh mutaxassisi shtat birligi hisobidan viloyat hokimining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha o'rinbosari komplayens xizmati korrupsiyaga qarshi ichki nazorat shu'basi bosh mutaxassisi lavozimi;

viloyat hokimligi murojaatlar bilan ishlash bo'limi yetakchi mutaxassisi shtat birligi hisobidan viloyat hokimining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha o'rinbosari komplayens xizmati korrupsiyaga qarshi ichki nazorat shu'basi yetakchi mutaxassisi lavozimi;

viloyat hokimligi ichki audit xizmati bosh mutaxassisi shtat birligi hisobidan viloyat hokimining komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha o'rinbosari ichki audit bo'yicha bosh mutaxassisi shtat birligi joriy etilsin;

viloyat hokimning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi lavozimi nomi viloyat hokimning ma'naviyat va davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchisi nomiga o'zgartirilsin;

viloyat hokimining raqamlashtirish masalalari bo'yicha maslahatchisi lavozimi nomi viloyat hokimning raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha maslahatchisi nomiga o'zgartirilsin;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-oktabrdagi "Strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimini joriy etish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-201-son Farmoniga asosan viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi rahbari lavozimi viloyat hokimining maslahatchisi – axborot-tahlil guruhi rahbari nomiga o'zgartirilsin;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrdagi "Davlat auditi va moliyaviy nazorati faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-252-son Farmoniga asosan viloyat hokimligi umumiy bo'lim (Devonxona) 1-toifali mutaxassisi shtat birligi qisqartirilsin.

4. Viloyat hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (E. Avezov) mazkur qarorni xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining navbatdagi sessiyasi tasdig‘iga o‘rnatilgan tartibda kiritсин.

6. Viloyat hokimining 2016-yil 26-dekabrdaqi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 22-dekabrdaqi “Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-2691-sonli qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi Q-172-son qarorining 1-ilovasi ilovaga muvofiq yangi tahrirda bayon etilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan viloyat hokimining 2024-yil 28-dekabrdaqi “Navoiy viloyati hokimligi tashkiliy tuzilmasiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi 348-5-0-Q/24-sonli qarorining 1-ilovasi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (E. Avezov) viloyat hokimligi tashkiliy tuzilmasiga o‘zgartirishlar kiritilishi munosabati bilan bo‘shab qoladigan xodimlarni qonunchilikda belgilangan tartibda ishga joylashtirish choralarini ko‘rsin.


9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari R. Sulaymonov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



N.Tursunov

Navoiy viloyati hokimligi boshqaruv apparatining TUZILMASI



Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni - 62 nafar